

LABARATORIYA ISHI №5

EKVIVALENTLARNI ANIQLASH

Kerakli asbob va reaktivlar: texnik-kimyoviy tarozi (toshlari bilan); halqali shtativ, qisqich, 50 ml li byuretka, ikki tomoniga ikkita probka o'rnatilgan ik-kita naycha, barometr, termometr, gaz gorelkasi, eksi-kator, ikkita chinni tigel, voronka, byuks, qisqich, pichoq, asbestlangan to'r, magniy lentasi, nitrat kislota NNO_3 (4 n), sulfat kislota (2n).

Elbmentning bir massa qism vodorod, sakkiz massa qism kislorod bilan birika oladigan yoki shularga almashina oladigan miqdori uning kimyoviy ekvivalenti deb ataladi.

Elementlar bir-biri bilan o'zlarining ekvivalentlariga proporsional miqdorlarda birikadi.

METALL EKVIVALENTINI BEVOSITA ANIQLASH

Metall (*masalan, magniy*) ekvivalentini bevosita aniqlash uchun ma'lum miqdor metall olib, uni oksidga aylantiriladi. So'ngra oksiddagi metall bilan kislorod miqdorini aniqlab, metallning ekvivalenti hisoblab topiladi. Tajriba quyidagicha olib boriladi.


Ishning bajarilishi. Tarozida 0,2 g magniy qirindisi tortib olib, uni shu tarozida avvalroq tortib qo'yilgan chinni tigelga soling. Shundan keyin magniyni mo'rili shkafda nitrat kislotada eriting. 0,2 g magniyni to'la aritish uchun 4 n NNO_3 eritmasidan qancha kerakligini hisoblang. Kislota eritmasini oz-ozdan tigelga (magniy to'liq erib bo'lguncha) quyib boring. Hosil qilingan magniy nitrat eritmasini ehtiyyotlik bilan bug'lantnring. So'ngra tigelda qolgan qattiq muddani ochiq alangada cho'g'languncha qizdiring. Bu ishni juda ehtiyyotkorlik bilan birdaniga juda ko'p miqdorda azot oksidlari chiqib ketmasligiga ahamiyat berib bajaring. Modda cho'g'langach, tigelni alangadan olib, eksikatorda sovuting. Sodir bo'lgan reaktsiyalarining tenglamalarini daftarga yozib qo'ying. Tigel sovuganidan keyin uni (ichidagi magniy oksidi bilan birga) texnik-kimyoviy tarozida torting. So'ngra tigeldagi modda ikkinchi marta cho'g' holatiga keltiriladi va eksikatorda sovitilganidan keyin yana tortiladi. Bu jarayon so'ntgi ikkita tortish o'rtasida farq qolmaguncha (ya'ni magniy nitrat batamom parchalanib bo'lguncha) takrorlanaveradi. Topilgan natijalar asosida mag-niyning ekvivalenti hisoblab chiqariladi.

Tajriba natijalarini hisoblash

1. Chinni tigelning og'irligi (a).

2. Magniy qirindisining og'irligi (b).
3. Chinni tigelning magniy oksid bilan og'irligi (c).
4. Hosil qilingan magniy oksidining og'irligi (c - a).
5. Mapshy bilan birikkan kislodnining og'irligi (c - a) - b
6. Magniyning ekvivalenti $E = \frac{8\hat{a}}{(\tilde{n} - \hat{a}) - \hat{a}}$

KISLOTA TARKIBIDAN VODORODNI SIQIB CHIQARISH USULIDAN FOYDALANIB MAGNIYNING EKVIVALENTINI ANIQLASH



19-rasmida tasvirlangan asbob yig'iladi. Sig'imi 50 ml bo'lган byuretka (1) shtativ halqasidagi byuretka (2) bilan rezina nay orqali birlashtiriladi. Byuretka og'ziga shisha naychali tiqin o'rnatiladi; shisha nay-chaning tepe tomoniga rezina naycha kiydirib, uning ikkinchi uchi probirkaga (3) ga kiritib qo'yiladi.

Tajribani boshlashdan avval asbobning germetikligini aniqlang. Bu maqsadda ikkala byuretkaga suv soling. So'nra 1-byuretka og'zini tiqin bilan berkitib, suvning sathini belgilab oling. Shtativ halqasi yordami bilan byuretkaning birini pastga tushiring. Agar asbob germetik bo'lsa, 2-byuretkani pastga tushirilganida byuretkadagi suvning sathi avval bir oz pasayadi, so'ngra o'zgarmay qoladi. Agar 1-byuretkadagi suv sathi to'xtovsiz pasayaversa, bu hol asbobning germetik emasligini ko'rsatadi, ya'ni biror joydan asbobga havo kirayotgan bo'ladi. Bu kamchilikni bartaraf qilish kerak. Agar o'quvchining o'zi havo kirayotgan joyni topa olmasa, darhol o'qituvchiga murojaat qilishi lozim.

Ishning bajarilishi. Magniy qirindisi yoki kukunidan tarozida taxminan 0,03 g. tortib oling. Byuretka og'izdagi tiqinni olib qo'ying, 2-byuretkani yuqoriga ko'tarish va pastga tushirish orqali byuretkadagi suvning sathini byuretka, 19- p a c m . Эквивалент shkalasining noliga keltiring (yoki noldan salgina pastga tushiring). аниqlanadigan asbob: Sulfat kislotaning 2 n eritmasidan 5 ml olib, uni kichik voronka

orqali probirkaga quying. Quritilgan kichkina probirkaga tarozida tortilgan magniy qirindie yoki kukunini soling va uni sulfat kislotali probirkaga ehtiyyotlik bilan tushiring. Magniy sulfat kislotaga tegmasin. Probirkachaning og'zini rezina naychaga ulangan shisha naycha o'rnatilgan tiqin bilan berkitib, rezina naychani byuretkaga ulang. So'ngra 2-byuretkani dam yuqoriga, dam pastga surib, 1-byuretka hamda 2-byuretkadagi suvning sathini tenglashtiring. Byuretkadagi suv sathi to'g'ri kelgan raqamni (suyuqlikning pastki meniskiga qarab 0,1 ml gacha

aniqlik bilan) yozib oling. Probirkani salgina turgib, magniyni kislotaga tushiring. Bu vaqtda qan-day hodisa ro'y berishini yozib oling. Reaktsiya tugaga-nidan keyin probirkha xona temperaturasiga qadar sovushini kutib turing. So'ngra 2-byuretkani yana pastga va yuqoriga surib, ikkala byuretka ichidagi suvning sathini tenglashtiring. Byuretkadagi suv sathi qaysi nuqtada turganligini yozib oling. Laboratoriyadagi termometr va barometrdan foydalanib tajriba vaqtidagi xona temperaturasi va havo bosimini yozib oling. Tajriba ma'lumotlarini jurnalga quyidagi tartibda yozing:

1. Magniy kukunining massasi (m)
2. Temperatura($t^{\circ}\text{C}$)
3. Agmosfera bosimi (P-kPa larda)
4. Byuretkadagi suvning reaktsiyadan avvalgi balandligi (h_1)
5. Byuretkadagi suvning reaktsiyadan kyoyingi balandligi (h_2).

Tajriba natijalarini hisoblash

1. Kislotaga magniy ta'sir etishi natijasida siqb chiqarilgan vodorodning (t va R dagi) hajmini hisoblash :

$$V = h_2 - h_1$$

2. Topilgan hajmni normal sharoitga keltirish:

$$V_0 = \frac{(B - h) \cdot 273,2}{101,352 \cdot T},$$

bu erda $T = 273,2 + \text{tabsoylut temperatura}$, h – suv bug'i bosimi ($t^{\circ}\text{C}$ uchun ilovadagi 2-jadvaldan olinadi), R – tajriba davomidagi havo bosimi.

3. Normal sharoitda bir mol vodorodning hajmi 22,4 l ekanligini nazarda tutib, m_1 g magniy siqb chiqargan vodorodning massasi m_2 hisoblab topiladi.

4. $\varTheta = \frac{m_1}{m_2}$ formuladan foydalanib, magniyning ekvivalenti \varTheta topiladi (m_1 – magniyning massasi, m_2 – vodorodning massasi).

Hisoblashni osonlashtirish uchun $\varTheta = \frac{11200 \cdot m_1}{1,008 \cdot V_0}$ formuladan foydalanish ham mumkin.

5. Magniyning ekvivalenti \varTheta ni uning nazariy qiymati \varTheta_{naz} bilan solishtirib, quyidagi formula asosida xatoning foizlardagi qiymati hisoblanadi:

$$\% \text{ ñàòî} = \frac{\bar{Y}_{\text{fàç}} - \bar{Y}}{\bar{Y}_{\text{fàç}}} \cdot 100\%$$